

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishi – postindustrial jamiyat iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchidir

(dastlabki ma'lumotlar)

Dunyo miqyosida iqtisodiy rivojlanishning eng muhim qonuniyatlaridan biri, iqtisodiy o'sishning o'zaro bog'liqligi va milliy iqtisodiyotda xizmatlarning tobora ortib borayotgan roli hisoblanadi, bu xizmatlar sohasida foydalaniladigan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar ulushining ortishi bilan izohlanadi.


Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Bu, xususan, sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jiozlanishining o'sishi, ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

Hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining o'rne juda katta va ahgamiyatlidir. Bu ishlab chiqarishning murakkablashuvi, bozorni kunlik va shaxsiy talabdan kelib chiqqan holda tovarlar bilan to'ldirish, jamiyat hayotini yangilovchi ilmiy-texnologik taraqqiyotning jadal o'sishi bilan bog'liqdir.

Bularning barchasini axborot, moliyaviy, transport, sug'urta va boshqa xizmat turlarisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bundan tashqari, xizmatlar tovarlar savdosining ajralmas qismi hisoblanadi (ayniqsa texnik jihatdan murakkab), chunki tovarlarni sotish asosan sotish vaqtida ko'rsatilayotgan xizmatlardan va sotishdan keyingi xizmatlardan iborat rivojlanayotgan tarmoqni talab qiladi. Yangi korxona va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxatini kengaytirish kelgusida ish o'rinlarini ko'paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

2019-yil 1-oktabr holatiga viloyatimizda jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 31,2 mingtani tashkil etdi, ulardan 19,8 mingtasi iqtisodiy faoliyat turi xizmatlar sohasiga to'g'ri kelib, jamiga nisbatan 63,6 % ga yetdi. Ularning o'sishi 13,9 % ga ko'paydi.

**2019-yil 1-oktabr holatiga faoliyat
ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Zamonaviy tadbirkorlik ommaviylashmoqda, bu birinchi navbatda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishiga, ushbu sohada kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyat yuritishi uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan bog'liq.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining aniq miqdoriy ustunligi ushbu sohaning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 15,0 mingtasi yoki 75,6 % kichik tadbirkorlik sub'ektlari hisobiga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining umumiy sonida iqtisodiy faoliyat turi xizmatlar sohasi bo'lgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 57,1 % ni tashkil etdi. Ularning soni o'tgan yilga nisbatan 2,3 mingga ko'payib, o'sish sur'ati 17,6% ni tashkil etdi.

**2019-yil 1-oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan
kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tarkibi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil 1-oktabr holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (40,9 %) yuqori ulushni egallaydi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 7,6 % ni tashkil etdi.


Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish

sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 6,1 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,6 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,8 % ga teng bo'ldi.

2019-yil 1-oktabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Ma'lumot uchun: 2018-yil 1-oktabr holatiga, xizmatlar sohasida 17,4 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida eng katta qismini savdo xizmatlari - 39,1 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 7,3 %, tashish va saqlash - 6,0 %, axborot va aloqa - 3,0 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,6 %, boshqa turlar - 41,0 % ni tashkil etgan.

2019-yil 1-oktabr holatiga xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan ko'rilganda 2,4 mingga ko'paydi.

**Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar sonini
2018-yilning mos davriga nisbatan ko'payishi
(2019-yil 1-oktabr holatiga, ming birlikda)**



Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mamlakatda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Shu sababli, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish zarur.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi va ularning soni 2,3 ming birlikga ko'paydi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6996,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Uning nominal hajmi 1244,9 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 11,9 % ni tashkil etdi.


**Hajmi 1244,9
mlrd. so'mga
oshdi**

**Xizmatlar hajmi
6996,7 mlrd. so'm**

**O'sish sur'ati
111,9 %**

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (163,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (112,5 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (107,4) va sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (106,7 %) qayd etildi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



**2019-yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	6996,7	111,9
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	359,4	112,5
Moliyaviy xizmatlar	1 261,2	163,9
Transport xizmatlari	1 554,7	101,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 521,8	102,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	111,9	104,7
Savdo xizmatlari	2 256,3	105,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	217,6	107,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	256,5	95,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	111,9	106,7
Ijara xizmatlari	165,6	100,0
Kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	169,7	101,6
Shaxsiy xizmatlar	308,7	103,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	57,8	106,2
Boshqa xizmatlar	165,4	102,1

2019-yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibida eng yuqori ulushlar savdo xizmatlari (32,3 %), transport xizmatlari (22,2 %), moliyaviy xizmatlar (18,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,1 %), shaxsiy xizmatlar (4,4 %), shuningdek ta'lim sohasidagi xizmatlarda (3,7 %), kuzatildi.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi iqtisodiy qarorlar qabul qilish yo'lidano bormoqda. Savdoda qisqa vaqt ichida uning kichik chakana tashkilotlari - chodirlar, do'konchalar, peshtaxtalar, yengil konstruktsiyali pavilonlar va yarmarka turlarining soni ko'paymoqda.

Kichik savdogarlarning yordami bilan iste'mol bozorini to'ldirish muammosi tezda hal qilindi, xaridor mahsulotni tanlash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida savdo xizmati muhim rol o'ynaydi, bunda, ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi bog'liqlikni amalga oshiradigan, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, shuningdek, ularning turlari va sifatini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 32,3 % ni tashkil etdi va 2256,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uchi – 84,3 % ga to'g'ri keladi.


Chakana savdo - bu oxirgi iste'molchilarga tovarlarni sotib olish va sotish aktini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan odamlarning alohida faoliyati. Ushbu faoliyat ayirboshlash jarayoniga xizmat ko'rsatishga qaratilgan aniq texnologik va xo'jalik operatsiyalarining kombinatsiyasi bo'lib, tovar aylanmasi sohasidagi harakatning yakuniy bo'g'inidir.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 9,0 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 6,7 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo - bu tovarlarni maqsadlar uchun sotib olgan yoki keyinchalik xom ashyo (ishlov berish, tikish) yoki qayta sotish sifatida foydalanadiganlarga sotish bo'yicha har qanday faoliyat. Shuning uchun ulgurji savdoda tovarlar katta miqdorda va katta hajmda sotib olinadi.

**2019-yil yanvar-sentabr oylari uchun
savdo xizmatlari tarkibi, %**



2019-yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 1261,2 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 498,7 mlrd. so'mga oshdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 85,3 % ni tashkil etadi.

**2019-yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida
moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %**




Bundan tashqari, so'nggi yillarda bozorni zamonaviy axborot texnologiyalari, aloqa vositalari bilan jihozlanganligi kuzatilmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yuqori texnologiyali innovatsion ishlanmalardan foydalanish korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlar samaradorligini oshirishga, iqtisodiyotning turli sohalarida tovarlar va xizmatlarning yangi bozorlarini yaratishga va mavjud bozorlarni kengaytirishga yordam beradi va bu oxir-oqibat aholi hayotining yaxshilanishiga olib keladi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 359,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 5,1 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 96,8 % ni tashkil etadi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida nashriyotchilik xizmatlari - 1,6 %, kompyuter dasturlashtirish xizmatlari – 0,7 %, axborotlashtirish sohasidagi xizmatlari – 0,5 % va boshqa aloqa xizmatlari - 0,4 % ni tashkil etdi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.



2019-yil yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 27,4 mlrd.so'mga oshib, 256,5 mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ulushi 3,7% ni tashkil etdi.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish quyidagilardan iborat:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirish, aholining yuqori sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularga maxsus va yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada isloh qilish aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirishda ijobiy natijalarga erishishga muvaffaq bo'lindi.

Bundan tashqari, tibbiy ta'lim tizimini isloh qilish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Nufuzli xorijiy ta'lim muassasalari filiallarini ochish, oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va ixtisoslashgan tibbiyot markazlari o'rtasida integratsiyani kuchaytirish masalalari bo'yicha ham amaliy ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

**2019 yil yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash sohasida
ko'rsatilgan xizmatlarning hajmi va o'sish sur'ati**




2019-yil yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 111,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,7 % ni tashkil etdi.

2018-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 104,7 % ni tashkil etdi, hajmi esa 16,7 mlrd. so'mga oshdi va 111,9 mlrd. so'mga etdi.



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 89,3 % bilan ustunlik qiladi.

**2019-yil yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %**




**2019-yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Andijon viloyati	6996,7	111,9
Shaharlar:		
Andijon	3301,7	116,3
Xonobod	86,7	105,9
Tumanlar:		
Oltinko'l	233,1	109,0
Andijon	385,3	109,2
Baliqchi	310,3	106,8
Bo'z	74,8	106,2
Buloqboshi	192,1	107,8
Jalaquduq	246,4	108,1
Izboskan	305,8	108,0
Ulug'nor	61,8	105,8
Qo'rg'ontepa	298,7	107,9
Asaka	454,1	109,1
Marhamat	224,5	108,5
Shahrixon	421,9	108,7
Paxtaobod	246,7	108,4
Xo'jaobod	152,8	107,3

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy holati ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasini aks ettiradi, ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot hajmini (YaHM) xarakterlaydi va hududning byudjet imkoniyatlari va pul oqimlarining hajmini belgilaydi, shu jumladan, xizmatlar sohasining rivojlanishini aks ettiradi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi Andijon shahrida (3301,7 mlrd. so'm) qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan shahar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 116,3% ni tashkil etdi.

**2019-yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari %**




Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari Andijon tumani (109,2 %), Asaka tumani (109,1 %) va Oltinko'l tumanlarida (109,0 %) qayd etildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Bo'z tumanida (106,2 %) Xonobod shahrida (105,9 %) va Ulug'nor tumanida (105,8 %) kuzatildi.

Hududlar bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida eng yuqori ulushlarni Andijon shahri (46,6 %), Asaka (6,5 %), Shahrixon (6,1 %) va Andijon tumanlari (5,5 %) egallaydi.

**2019-yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari
umumiy hajmida shahar va tumanlarning ulushi %**



Hududlar o'rtasida eng kichik ulushlar Ulug'nor (0,9 %), Bo'z (1,1 %), Xonobod shahriga (1,3 %) va Xo'jaobod tumanlariga (2,2 %) to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2265,4 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,8% ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich hududlar o'rtasida Andijon shahrida 7560,5 ming so'mdan, Ulug'nor tumanida 1055,2 ming so'mgacha oraliqni tashkil etadi.


**2019-yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida
aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, ming so'm**

	Hajmi, ming so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Andijon viloyati	2265,4	109,8
<i>Shaharlar:</i>		
Andijon	7560,5	114,4
Xonobod	2064,9	104,2
<i>Tumanlar:</i>		
Oltinko'l	1338,0	106,9
Andijon	1492,4	106,8
Baliqchi	1575,8	104,8
Bo'z	1056,8	104,3
Buloqboshi	1370,0	105,9
Jalaquduq	1346,5	106,3
Izboskan	1311,3	105,9
Ulug'nor	1055,2	103,8
Qo'rg'ontepa	1407,2	106,0
Asaka	1412,4	107,0
Marhamat	1320,3	106,6
Shahrixon	1436,9	106,6
Paxtaobod	1303,1	106,4
Xo'jaobod	1414,9	105,1

O'tgan yilning shu davriga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlarning ja'mi hajmi 367,9 ming so'mga oshdi.

2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan esa aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 282,1 ming so'mga oshdi.

**2018-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan shahar va tumanlar
kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar
hajmining oshishi va o'sish sur'atlari**



Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib hayot sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir.

Mamlakatimizda post-industriyadan keyingi axborot jamiyati shakllanar ekan, aholining ehtiyojlari tobora o'sib borishi va ularning xilma-xilligi kengayib borayotganligi sababli, xizmat ko'rsatish sohasining roli tobora ortib bormoqda.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

71-230-82-63